UDK: 39 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss5/a102**

ZAMONAVIY O‘ZBEK TURAR JOYINING DASTLABKI MANBALARI XAQIDAGI MASALALAR BO‘YICHA

К ВОПРОСУ ОБ ИСТОКАХ СОВРЕМЕННОГО УЗБЕКСКОГО ЖИЛИЩА

ON THE QUESTION OF THE ORIGINS OF MODERN UZBEK HOUSING

[1]Zununova Gulchexra Shavkatovna
[1]O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Milliy arxeologiya markazi, tarix fanlari doktori, yetakchi ilmiy xodim

Annotatsiya

Maqolada zamonaviy o‘zbek xonadoni (uyi, turar joyi) ning dastlabki manbalari ochib berilgan. Xususan, mehmonxona ma’nosi bo‘yicha parallellar o‘tkaziladi, guvala va paxsa kabi qurilish materiallari o‘rta asrlardayoq ko‘p qo‘llanilgan, bu qatorga pishiq g‘ishtni ham bemalol kiritish mumkin. O‘rta asrlar va xozirgi zamondagi turar-joylarning isitish tizimlari o‘rganilgan.

Аннотация

В статье раскрываются истоки современного узбекского жилища. В частности проводятся параллели с комнатой для гостей- мехмонхона, отмечается, что строительный материал такие как гуваля и пахса был известен еще в средневековье, также как жженый кирпич. Рассматриваются отопительные системы жилищ средневековья и современности.

Abstract

The article reveals the origins of the modern Uzbek dwelling. In particular, parallels are drawn with the guest room - mehmonkhon, it is noted that building materials such as guval and pakhsa were known in the Middle Ages, as well as burnt bricks. The heating systems of dwellings of the Middle Ages and the present are considered.

Kalit so‘zlar: *turar joy (xonadon), struktura, qurilish materiallari, mehmonxona, isitish, sandal*
Ключевые слова: *жилище, структура, строительные материалы, мехмонхона, отопление, сандал*
Key words: *dwelling, structure, building materials, mehmonkhona, heating, sandalwood*

KIRISH

Turar joy – insonning zaruriy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi eng ahamiyatli elementlarning biri hisoblanadi. U muayyan tarixiy vaziyatda atrofdagi tabiiy-geografik muhit va ijtimoiy-iqtisodiy turmush sharoitlarida shakllanadi. Bu nafaqat maishiy-xo‘jalik, balki estetik, diniy, marosim, ramziy vazifalarni bajaruvchi murakkab madaniy majmuadir. Turar joy xalqning ham moddiy, ham ma'naviy hayoti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, uning tarixiy yo‘lini aks ettiradi. Turar joyning shakllanishida shuningdek, manzilgohning turi, oilaning katta-kichikligi va aholining etnik tarkibi ta'sir ko‘rsatadi.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIK DARAJASI

Turar joy mavzusi bo‘yicha juda katta miqdorda ishlar mavjud. Masalan, o‘rta asrlar turar joylari xaqida juda ko‘p arxeologlar yozishgan. Maqola kontekstida “Sharq Mavoraunnahrining qadimiy va o‘rta asrlar shahri” monografiyasi kabi [4] maqolalardan foydalanilgan bo‘lib, bu monografiyada o‘z ichiga Choch va Ilak kabi Sharqiy Mavorounnahrning o‘rta asrlardagi ikki shahrini olgan Toshkent vohasining eng sanoatlashgan hududlaridan bo‘lgan shaharlarning shakllanish genezisi, qonuniyatlari va yo‘llari o‘rganilgan. S.Kubaevning maqolasida [14] O‘zbekiston hududida qazilmalar vaqtida topilgan o‘rta asrlardagi turar joyning qurilish materiallari, tuzilishi, isitish tizimi to‘g‘risida ma'lumotlar keltirilgan. M.M.Saidovning o‘rta asrlarda Samarqanddagi turar joylar xaqidagi avtoreferati va maqolasida [8,9] stratifikasiya holatlariga asosiy e'tibor qaratilgan. S.P.Tolstovning monografiyasida shu jumladan O‘rta Osiyodagi turar joylarning isitish tizimi tahlil qilingan. O‘zbekistonning zamonaviy turar joylari to‘g‘risida ham qator ilmiy ishlar mavjud. Masalan, V.L.Voroninaning ishida [2,3] XIX – XX asrlar oxiridagi o‘zbek turar joylarining xalqona an'analari, shuningdek, ularning iqlim bilan bog‘liqligi tadqiq etilgan. A.K. Pisarchik [7] XX asr boshlariga asosiy ahamiyat qaratgan holda O‘rta Osiyodagi turar joylarning isitish tizimi xaqida yozadi, V.A. Nil'sen[6] esa XIX – XX oxiridagi turar joylarning tuzilishi xaqida fikr yuritadi. G.Sh. Zununova o‘z ishida shu jumladan, Toshkentda o‘zbeklarning zamonaviy turar joylari tuzilishi, isitish tizimi, qurilish materiallarini tahlil qiladi. Adabiyotlardan ma'lum bo‘ladiki,

O‘zbekistonning o‘rta asrlar va xozirgi zamon turar joylarining solishtirma tahlilini o‘tkazishga urinishlar xozirgacha bo‘lmagan.

Metodologiya. Maqolada solishtirma-tarixiy usul qo‘llangan bo‘lib, uning yordamida solishtirish yo‘li bilan tarixiy hodisalar o‘rtasidagi umumiy va o‘ziga xos jihatlar aniqlanadi.

O‘zbeklarning zamonaviy turar joylarining dastlabki manbalari ildizlari o‘rta asrlarga borib taqaladi. O‘rta asrlar manzilgohlarining rekonstruksiyalari shu xaqda ma'lumot bera oladi. Masalan, o‘rta asrlardagi turar joylarda uyga keladigan mehmonlar uchun xona (mehmonxona), paxsa, pishiq g‘isht va xom g‘isht kabi qurilish materiallarini ko‘rish mumkin. Albatta, biz uylar evolyusiya bosqichidan o‘tib rivojlangan, deya olmaymiz, u tabiiyki, turli asrlarda shaklan o‘zgargan, bu holat ijtimoiy muhitning ideologiyasi hamda tabiiy-iqlim sharoitlariga borg‘liq bo‘lgan. Ammo, shunga qaramay, ba'zi elementlar shu kungacha saqlanib qolgan. Masalan, mehmonxona doimo o‘zimga xos bo‘lgan va boshqa xonalardan o‘z vazifalariga ko‘ra, jihozlanishiga ko‘ra ajralib turgan, bu holat nafaqat saroy inshootlari, balki boy shaharliklarning xonadonlari uchun ham xos bo‘lgan. Bundan tashqari, o‘rta asrlar davriga mansub shaharlar qazilma ishlari olib borilganda ikki qavatli uylar ham topilgan bo‘lib, bu bir tomondan shaharda aholi zichligi, ikkinchi tomondan esa shaharliklarning mulkiy holatiga bog‘liq bo‘lgan. Xozirgi kungacha o‘zbek turar joylarida paxsa va xom g‘isht kabi qurilish materiallaridan foydalaniladi.

Agar o‘rta asrlardagi turar joylar xaqida to‘xtalsak, aytish kerakki, san'at asari, deb atash mumkin bo‘lgan, devorlari suratlar bilan bezatilgan hashamatli xonalar nafaqat saroylarda, balki shaharlik zodagonlarning xususiy uylarida ham bo‘lgan. Masalan, xarobalari Kattaqo‘rg‘on shahri yaqinida saqlanib qolgan Robinjon shahrida qazilma ishlari vaqtida robot ochilganda sirlangan ajoyib sopol buyumlar ishlab chiqaradigan kulolning ustaxonasi, devorlari turli ganch bilan bezatilgan va naqshinkor o‘ymakkor panjaralar qo‘yilgan mehmonxona topildi [12] .

IX asr oxiri XIII asr boshlarida boy zodagon samarqandliklarning uylarida oshxona, ayvon, mehmonxona, dahliz, maishiy va xo‘jalik xonalari alohida ajralib turgan. Boy shaharlikklarning aksariyat uylari ikki qavatli bo‘lgan [9]. Shahristondagi Kanka shahrida devorlari paxsa va xom g‘ishtdan qurilgan turar joy topilgan. [4].

O‘zbeklarning zamonaviy turar joylari. Zamonaviy turar joylar xaqida gapiradigan bo‘lsak, aytish mumkinki, Toshkentdagi uylar, tekisliklardagi barcha uylar kabi paxsa, hom g‘isht va guvaladan tashkil topgan bir xil devorlar konstruksiyasiga ega. Xozirgi kungacha uylarning old qismida ayvonlar bor. Aksariyat hollarda hovlining “tashqari” deb atalmish qismida joylashgan mehmonxonalar ko‘proq erkaklar uchun mo‘ljallanib, o‘zining ijtimoiy yo‘nalishiga ega bo‘lgan. Masalan, boylarning qo‘rg‘onlarida mehmonxona erkaklar uchun alohida ajratilgan xos xona bo‘lgan. Aholining o‘rta hol qatlamlarida esa shahar xovlilarning katta emasligi sabab menhmonxonalar darvozaxona ustiga quriladigan boloxona sifatida qurilgan, yoki darvozaga yaqin joyda hovlining birinchi qavatida mehmonxona uchun joy ajratilgan. Ba'zan qarindosh-urug‘lardan iborat bo‘lgan bir nechta xonadon bitta mehmonxonadan foydalangan. Kambag‘allarning uyida xonadonning mustaqil qismi sifatida “tashqari” deb atalgan joyning o‘zi yo‘q edi, ammo uyning asosiy qismiga o‘tish yo‘laklari bo‘lmagan, ko‘cha eshikka yaqin joylashgan alohida xona – mehmonxona [6] bo‘lgan, va va begona mehmon kelganda ayollar qo‘shnilarnikiga chiqib ketishgan.

Mehmonxona kambag‘allarning xonadonida ikkita vazifani bajargan: yashash uchun xona va mehmonlar uchun xona. Xozirgi vaqtda kambag‘al xonadonlarda va o‘rtaxol oilalarda mehmonxona uylangan o‘g‘illar uchun vaqtincha turar joy bo‘lib xizmat qiladi, shu bilan birga, to‘y, ta'ziya kabi marosimlarda erkaklar uchun mehmonxona vazifasini bajaradi. Bu yerda odatda erkaklar guruhi gap o‘ynash uchun to‘planadi. Ta'kidlash jo'izki, shu bitta mehmonxona erkaklar va ayollar uchun turli vaqtlarda xizmat qilishi mumkin [5].

Agar mehmonxonaning batafsil vazifalari ko‘rib chiqilsa, qo‘rg‘onda alohida mexmonxona ajratish uy egalarining o‘z oilasi turmushini begona ko‘zlardan nari tutish istagi bilangina emas, balki ildizlari qadim davrlarga borib taqaladigan an'analarga ham bog‘liq [1]. XIX asrning oxirlarida Toshkent voxasida har mahallada shu yerlik aholining kuchi bilan quriladigan mehmonxonalar saqlanib qolgandi. Odatda ular turar joylardan narida joylashgan. U yerda vaqti -vaqti bilan erkaklar guruh guruh bo‘lib to‘kma, gap kabi yig‘inlarga to‘planishar, shu yerda ko‘ngil yozib, gurunglashar, kitoblar mutolaa qilar, baxshi va dostonchilarni, qo‘shiqchi va musiqachilarni tinglashardi. Odatda ular juda kech tarqalishar, bo‘ydoq yigitlar yotib ham qolishardi [1]. Qish

kunlarida mehmonxonani isitish uchun xona o‘rtasida chuqurcha yasab, u yerda gulxan yoqilar, mehmonlar uning atrofida o‘tirishar edi. A.K. Pisarchik o‘z maqolasida XIX asrning oxirida dunyoga kelgan, Toshkentning Sag‘bon mahallasida yashagan insonning esdaliklaridan ma'lumot keltiradi. U boy insonlarning mehmonxonalaridagina gulxan yoqishganini aytadi [7]. Mehmonxonaning vazifalarida olov-gulxanning roli katta bo‘lgan. Uning atrofida mahalla erkaklari to‘planishgan. Albatta, bu yerda ushbu xonalarning qadimda olovga sig‘inish kabi holatlar bilan uzviy bog‘liqlik kuzatiladiki, u Markaziy Osiyoda katta ahamiyat kasb etgan aniq bir O‘rta Osiyocha shaklida otashparastlik dini bilan bog‘lanadi. [1]. A.K. Pisarchikning maqolisida keltirilgan respondentlar ham ana shu xaqda so‘zlashgan: “Olov baxsh etayotgan rohat juda kuchli hisoblangan, shuning uchun gaplar bo‘layotgan vaqtida ishtirokchilar olovga tikilgancha gurung qilishardi”; “Olov - bu xudoning yerdagi vakili. Shuning uchun gulxan atrofidagi insonlar, uni o‘rab olgancha, unga tikilib, suhbat qurishadi” [7]. Erkaklarning yig‘inlari vaqtida mehmonxonada olov yoqish qadimiy e'tiqodlarning ifodasi bo‘lib, mehmonxonaning Islomgacha bo‘lgan O‘rta Osiyoning jamoat “Olov ibodatxonalari” bilan genetik aloqalarini kuzatish imkonini beradi[10].

Tuzilishi va qurilish materiallari. Toshkentdagi qo‘rg‘onlarning tuzilishi turlicha bo‘lib, o‘zbeklarning moddiy ahvoli va kasbiga bog‘liq bo‘lgan. Ba'zi uylarda mehmonxona darvoza yonida joylashgan. Ko‘pgina uylarda boloxonalar bo‘lgan. V.A.Nil'senning fikricha, binolarning ikki qavatli qurilish turlari Toshkent usylarining o‘ziga xos xususiyati, deyish mumkin. [6].

Qo‘rg‘on tarkibiga uyning tashqi tomonidan quriladigan, ba'zida ikki xona o‘rtasida joylashadigan ayvonlar kirgan. Ularning old tarafi panjarali devor va eshik bilan to‘silgan. Bunday binolar “qashqarcha” deb atalgan, chunki bu tur qurilish Qashqardan olingan. [3]. A.Shishov shunday yozadi: «Mahalliy aholining binolaridagi o‘ziga xos xususiyatlardan biri galereya (ayvon) yoki ustunli shiypon hisoblanib, issiq yoz kunlarida ular eng yaxshi xona bo‘lib xizmat qiladi [13]. Qo‘rg‘ondagi ayvonlar soni oilaning tarkibi va a'zolarining soniga bog‘liq bo‘lgan. Boylarning xonadonlarida oila katta bo‘lmasa ham bir nechtalab ayvon qurishgan: boy bo‘lmagan xonadonlarda bitta yoki ikkita ayvon qurilgan. Ayvon qura olmagan oilalar uy oldiga, daraxtlar soyasiga va uzum ishkomlari tagiga supa qurardilarki, u ham ayvon bajargan vazifani bajarar edi [1]. Bunday uylar rejasi XX asr boshidaToshkentda shaharcha turar joylar uchun xos bo‘lgan. Zamonaviy turar joylarda an'anaviy ayvonlar qo‘shimcha yashash xonasi vazifasini bajarib, ko‘pincha derazalar bilan o‘raladi.

XX asr boshlaridagi maxalladagi uylar ko‘chadan to‘liq to‘silgan bo‘lib, derazalari ham ichkariga, hovli tomonga qaratib o‘rnatilar edi. V.N.Nil'senning fikriga ko‘ra, “maxalla- bu o‘zgalar uchun yopiq bo‘lgan kichik olam”[6]. An'anaviy dunyoni anglash uchun bu cheksiz olam yaramaydi va uni anglab bo‘lmaydi, shuning uchun xavfli. O‘z makoni, Vatanining ajralmas va maqbul tavsifi – bu barqarorlik va mustahkamlik bo‘lgan. Bunday barqarorlik va tartibning kafolati esa yopiq, jihozlangan, o‘z chegaralariga ega bo‘lgan makondir. O‘zbek xonadonining yopiqlik xususiyati nafaqat maxalla aholisining ruhiyati bilan, balki, V.L.Voroninaning fikricha, o‘rta asrlarda mavjud bo‘lgan jamiyat tuzumi (O‘rta Osiyodagi turar joylar shakllanishi davri) bo‘lgan. Bu davrda jamiyat hayoti kam rivojlangan edi. Asosan, hunarmandchilik va savdogarchilikdan bo‘sh vaqtlarida shahar aholisi shaxsiy hayotiga o‘ralashib qolgan, uydan chiqmas edi. Faqat uydagi mahmonxonagina jamiyatning kichkinagina qismi sifatida xizmat qilardi. Ana shu sababli turar joylarning qat'iy ajralib turishi, uning ko‘chadan to‘silgan holda bo‘lishi xayron qolarli holat emasdi. Ular shaharning turli qismlari o‘rtasidagi aloqa vositasi sifatida qabul qilingan. Ba'zi holatlarda hokimiyat tepasidagi insonlarning tajovuzidan o‘z boyligini yashirish o‘rinli hisoblangan; tunda aholining xavfsizligi ta'minlanmagandi; yozdagi jaziramada shaharning yomon sanitar holati o‘z uyida uncha – muncha bo‘lsa-da maqbul kichik muhit yaratish uchun uni ko‘chadan ajartishni zaruriyat qilib qo‘yardi [3]. O‘rta asrlardagi kabi shahar mavzularga bo‘lingan. Turar joyning yopiq xususiyati tufayli XX asrning boshida an'anaviy uylar tashqi tomondan bir-biridan hech nimasi bilan ham farq qilmagan. Tashqaridan ular silliq, kulrang-tuproq monand yuzali devor va taxta devorlardan iborat edi [6]. Qo‘rg‘onning alohidalangan holati nafaqat ijtimoiy sharoitlar bilan bog‘liq bo‘lgan: zich yopiq to‘siqq hovliga ko‘chadagi changning kirishiga to‘sqinlik qilgan va me'yordagi mikromuhit yaratish imkonini beragan. Hovli avval ham, xozir ham issiqlik boshqaruvchi rolini bajargan va kunning yarmigacha tun davomida sovuugan havo qatlamini saqlab turgan [2]. Quruq mikromuhitda tashqi ishonchli ravishda muhitdan ajralib turish va tirqishlarni quyosh nurlaridan to‘sish muhim ahamiyatga ega [2].

Salqinlikni saqlashga ayvonlarning ochiq joylarining va ularning yonidagi xonalarning yo‘nalishi aksariyat holatlarda janub yoki sharqqa yo‘naltirilganligi yordam bergan, buning natijasida uylarning tashqi qismi kunning katta qismi davomida salqin-soyada bo‘lgan. O‘zbeklarning uyida nisbatan salqin haroratni saqlashga boloxona ham yordam bergan, u havo oqimining tikka kirishini faollashtirgan [6]. Sovet davrida uylar ko‘chaga tomon ochila boshladi, bu nafaqat yopiqlik an'analarini, balki Toshkentdagi o‘zbeklar turar joyi mavjudligining ekologik sharoitlarini ham buzardi. O‘zbekistonning mustaqillik davrida boloxonali uylarga o‘xshash ikki qavatli uylar paydo bo‘ldi, uylar baland devorlar ortida qurildi, ammo ko‘rinib turgan chiroyli tom va uyning ikkinchi qavati alohidalik tushunchasiga umuman mos kelmasdi.

XX asr boshida uylarning devorlari sinchli ravishda qurilgan. Xalqda “Sinch uyim, tinch uyim” degan maqol bo‘lgan, ya'ni agar uyning devorlari sinchdan qilingan bo‘lsa, u uzoq vaqt xizmat qiladi. Toshkent seysmik faol hududda joylashgan, shuning uchun devorlarning sinchli konstruksiyasi bu yerda juda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Bir qaraganda qalin ko‘ringan ikkitali sinchli devorlarda tokcha (o‘yiq joy) qilinib, ular devorning yarmini egallagan. Ularning vazifasi turlicha bo‘lgan-tokcha, taxmon. Devor ko‘tarilganda sinch orasini guvala, yoki paxsa urilgan. Chuqur tokcha-o‘yiqlarning mavjudligi devorlarni deyarli bir qatorli sinch qalinligiga tenglashtiradi, shuning uchun konstruksiya issiqlikni yo‘qotish masalasida hech qanday afzallikka ega emas. Shunga qaramay, chuqurcha -o‘yiqlarga to‘la devorlar fazoviy qattiqlikka ega bo‘ladi va tuproqqning tebranishlariga qarshi turadi[3]. Devorlarning salobatli konstruksiyasi og‘ir tomni tutib turish uchun ham zarur hisoblangan.

Shu tarzda ko‘ramizki, turar joylarning rejasi birinchidan, ijtimoiy sharoitlar; ikkinchidan, iqlim sharoitlari, va uchinchidan, xalqning xavfsizlik, baxt va farovonlik xaqidagi tasavvurlariga bog‘liq bo‘lgan.

Isitish. U an'anaviy uyning tuzilishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, sandal yordamida amalga oshirilgan. Shunisi qiziqki, O‘zbekiston hududida o‘tkazilgan arxeologik qazilmalarda ko‘pincha sandal ko‘rinishidagi isitish pechlari topiladi. Masalan, qadimgi davrlardaQadimiy Xorazm yodgorliklarida turar joylarning isitish tizimi yerga qazib o‘rnatilgan katta idish-xumlardan iborat bo‘lgan. Xususan, Ayozqal'a yodgorligida tadqiq etilgan uylarning har bir xonasida shunday xumlar yerga qazib o‘rnatilgan, chekkalari esa sopol bo‘laklari bilan mustahkamlangan ekanligi aniqlangan[11]. Bu tandirsifat pechlar “sandal” turiga kiradi, xum ichiga boshqa yerdagi o‘choqdan olingan ko‘mir tashlangan. Bunday tizim nafaqat xonani, balki polni ham isitgan [14].

X–XI asrga kelib, sandal qadimgi O‘zbekistonning deyarli barcha hududlarida uylarni isitish uchun keng qo‘llanilgan. Bunda qurilishda pishiq g‘ishtlarning keng tarqalganligi katta rol' o‘ynagan. Bu davrdagi sandallar Qadimgi Xorazm sandallaridan shunisi bilan farq qilardiki, ular pishiq g‘ishtdan tayyorlanardi. 2 turdagi sandal bo‘lgan: birinchi turi xona o‘rtasiga polga o‘rnatilsa, ikkinchisi devorga o‘rnatilgan[8].

Toshkent o‘zbeklarining turar joylari, O‘rta Osiyodagi tekislikda yashovchi aholining hammasi kabi uy egalarining uylarni uzoq davom etadigan issiqqa chidamli qilib moslashtirishga intilishlarini aks ettirib, sovuqqa unchalik moslashtirilmasdi. An'anaviy sandal umumiy xonalarning o‘zini emas, uning atrofida o‘tirganlarnigina isitardi [2]. A.K. Pisarchik Toshkentda XX asrning boshlarida olovdon (ko‘mir cho‘g‘lari solingan idishlar), shuningdek, yer o‘choqlardan foydalanilgani xaqidagi ma'lumotlarni keltiradi [7]. Toshkentda uylarni isitishning eng keng tarqalgan usuli sandal bo‘lib, O‘rta Osiyoda isitish tizimining eng mukammal shakli hisoblangan. Toshkentda bu kabi pechlarning ikki xil nomi mavjud: sandal va tancha (tojikchadan “tancha” -torgina, degan ma'noni anglatgan). Sandal balandligi 50 sm, uzunligi 70-80 sm bo‘lgan pastak taxta kursichani o‘zida aks ettirgan. Xona polida sandalning o‘lchamiga mos kichik o‘ra qazilib, uning ostida yanada chuqurroq o‘ra hosil qilinar, Toshkentda uni !olovxona” deb atashardi [7]. Sandal ustiga avval maxsus katta ko‘rpa, uning ustidan esa dasturxon yopilardi. Sandalning burchagi unchalik hurmatli joy hisoblanmagan. Eng yaxshi joy eshikdan eng uzoq joylashgan joy hisoblangan (sandalning to‘ri). Uning to‘g‘risidagi joy esa “sandalning poychasi” (tojikchadan poychak “oyoq osti”) deya atalgan, bu joy xona eshigiga eng yaqin joy bo‘lgan [7]. V.L. Voroninaning fikricha, maxalla aholisida keskin harorat o‘zgarishlariga o‘rganish shakllangan bo‘lsa-da, sandaldan foydalanish ko‘plab yallig‘lanish va revmatik kasalliklarni keltirib chiqargan. Shamollashdan tashqari, yaxshi o‘t olmagan ko‘mirning isidan zaharlanish holatlari ham uchrar edi [2].

Hozirgi kunda an'anaviyy mahallarning ba'zilarida sandallar saqlanib qolgan uylar uchrab turadi. Qariyalar isitishning aynan shu turini ma'qul ko‘rishlari, havosi isigan xonada o‘zlarini yomon his qilishlari ham bunga sabab bo‘lishi mumkin [2].

XULOSA

Aytib o‘tilganlardan kelib chiqadiki, xozirgi zamon turar joylarining dastlabki manbalari mavjud bo‘lib, shu jumladan, o‘rta asrlarda qurilgan uylar shu qatorga kiritilishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi FA Tarix instituti Etnologiya bo‘limi arxivi // «O‘zbeklar» kitobidan olingan materiallar.

2. Voronina V.L. Jilishe narodov Sredney Azii i klimat // Jilishe narodov Sredney Azii i Kazaxstana . M.1980.

3. Voronina V.L. Narodnie tradisii arxitekturi Uzbekistana. M., 1951.

4. Drevniy i srednevekoviy gorod Vostochnogo Maverranaxra . Tashkent .1990.

5. Zununova G.Sh. Material'naya kul'tura uzbekov Tashkenta: transformasiya tradisiy (XX-nachalo XXI v.). Tashkent.2013.

6. Nil'sen V .A. U istokov sovremennogo gradostroitel'stva Uzbekistana. Tashkent, 1988.

7. Pisarchik A.K. Tradisionnie sposobi otopleniya jilish osedlogo naseleniya Sredney Azii v XIX - XX v. //Jilishe narodov Sredney Azii. M., 1982.

8. Saidov M. Samarqandning o‘rta asr bezakli sopol o‘choqlari va ularning turar joylaridagi o‘rni// O‘zbekitson arxeologiyasi. № 1(4) son. Samarqand. Izd. Instituta arxeologii.2021.

9. Saidov M.M. Jilisha Samarkanda IX - nachala XIII vv. i ix mesto v stroitel'noy kul'ture Sogda. Avtoreferat dissertasii na soiskanie stepeni doktora filosofii (PhD) po istorii.Samarkand-2018.

10. Snesarev G.N. Relikti domusul'manskix verovaniy i obryadov u uzbekov Xo rezma. M.D969.S.192; Tolstov S P. Drevniy Xorezm. M., 1948.

11. Tolstov S. P. Drevniy Xorezm. Opit istoriko-arxeolologicheskogo issledovaniya. M. 1948.

12. Sarskaya doroga. Torgovie trassi Maverannaxra v sisteme Velikogo shelkovogo puti // https://shosh.uz/sarskaya-doroga-torgovyie-trassyi-maverannahra-v-sisteme-velikogo-shelkovogo-puti/

13. Shishov A. Sarti //Sbornik materialov dlya statistiki Sirdar'inskoy oblasti. T.X1. Tashkent, 1904.

14. Kubaev S. History of housing construction culture in Uzbekistan //https://www.researchgate.net/publication/371788318_HISTORY_OF_HOUSING_CONSTRUCTION_CULTURE_IN_UZBEKISTAN